



## MIOKARD INFARKTI VA HAYOT TARZI O`RTASIDAGI BOG`LIQLIK, XAVF OMILLARINI KAMAYTIRISH.

Bektemirov Elyor Sherg`oz o`g`li

*Qarshi Davlat Universiteti Tibbiyot fakulteti*

*Davolash ishi yo `nalishi 4-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Bugungi kunda yurak-qon tomir kasalliklari, xususan, miokard infarkti butun dunyo bo`yicha o`limning yetakchi sabablaridan biri hisoblanadi. Bu kasallik yurak mushaklarining qon bilan ta`minlanishining to`satdan to`xtashi natijasida yuzaga keladi. Miokard infarktining rivojlanishida hayot tarzi muhim rol o`ynaydi. Zamонавиy tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, to`g`ri turmush tarzi infarkt xavfini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin.

**Kalit so`zlar:** miokard infarkti, hayot tarzi, profilaktika, ateroskleroz, sog`lom ovqatlanish, ishemiya, jismoniy faollik, stress, chekish, o`lim, miokard, kasallik, nekroz, arteriya, qon, koronar qon tomir, xolesterin, jismoniy faollik, profilaktika, yurak xuruji, gipertoniya, og`riq, klinik belgilar, yurak-qon tomir kasalliklari, xavf omillari, infarktning oldini olish.

Miokard infarkti - yurak mushagining ishemik nekrozi. Butun dunyoda yurak-qon tomir kasalliklari yetakchi o`lim sababi hisoblanadi. Hayot tarzi infarkt xavfini oshiruvchi yoki kamaytiruvchi asosiy omil. Har yili dunyoda 18 milliondan ortiq odam yurak-qon tomir kasalliklaridan vafot etadi, O`zbekistonda yurak xurujlari 40 yoshdan keyin keskin oshadi, 80% holatlarda xavf omillari hayot tarziga bog`liq. Miokard infarktining eng keng tarqalgan asosiy sababi bu - koronar arteriyalarining aterosklerotik torayishi, unga quyidagi omillar sabab bo`ladi:

- 1) Gipertoniya- qon bosimining oshishi yurakda bosimni oshiradi;
- 2) Dislipidemiya - qonda yomon xolesterin miqdorining oshishi;
- 3) Chekish- qon tomirini toraytiradi va qonni quyuqlashtiradi;
- 4) Stress- yurak urishini tezlashtiradi va qon bosimini oshiradi;
- 5) Jismoniy harakatsizlik- qon aylanishini sustlashtiradi;
- 6) Noto`g`ri ovqatlanish- yog`li va shirin mahsulotlar arterial sog`liqni yomonlashtiradi;

Koronar tomirlar to`silib qolgandan keyin yurak mushaklariga kislород yetkazib berish to`xtaydi. 20-30 daqiqa ichida kislородsiz qolgan to`qimalarda ishemik nekroz boshlanadi. Bu esa yurakning qisqarish funksiyasini buzadi va yurakning yetishmovchiligi, aritmiyalar yoki yurak to`xtashiga olib kelishi mumkin.

Hayot tarzi va infarkt xavfi o`rtasidagi bog`liqlik quyidagicha: turmush tarzi yurak salomatligining asosiy mezonlaridan biri. 2021- yilgi European Heart Journalida



chop etilgan tadqiqotga ko`ra, sog`lom hayot tarzini olib borayotgan odamlarda yurak xurujlari xavfi 50 % ga kamayadi, ayniqsa , quyidagi holatlar xavfni oshiradi:

- CHekish- yurak kasalliklari bilan bevosita bog`liq;  
Alkogol iste`moli - yurak ritmini buzadi;  
Uyqusizlik yoki surunkali charchoq- yurakning tiklanishini qiyinlashtiradi;  
Xavf omillarini kamaytirish yo`llari:
- Sog`lom ovqatlanish: sabzavot, meva, to`liq don mahsulotlari, baliq va yengil yog`lar iste`moli yurak salomatligini qo`llab –quvvatlaydi;
  - Jismoniy faollik: har kuni 10000 qadam yurish, suzish, yugurish kabi mashqlar;
  - Stressni boshqarish: meditatsiya, nafas mashqlari, uyqu gigiyenasi;
  - Profilaktik tibbiy tekshiruvlar: qon bosimi, xolesterin darajasi, glyukoza miqdorini nazorat qilish;

Klinik belgilar( simptomlar):

- Asosiy belgisi ko`krak sohasidagi keskin og`riq;
- Og`riq 20 daqiqadan ortiq davom etadi;
- Yurak ustida, chap qo`lga, bo`yin yoki pastki jag`ga tarqaladi;
- Og`riq bosuvchi, yonuvchi, ezuvchi xarakterda bo`ladi;
- Nitroglitserin ta`sir qilmaydi;
- Tana harorati ko`tarilishi, nafas siqishi, sovuq ter bosishi, yurak urishining buzilishi kuzatilishi mumkin.

Ba`zida simptomlar noaniq bo`lishi mumkin( ayniqsa, qariyalar, ayollar, diabet bemorlarda)

Miokard infarkti - og`ir va hayot uchun xavfli kasallik. Biroq, sog`lom turmush tarzini shakllantirish orqali ushbu kasallikning oldini olishimiz mumkin. Sog`lom ovqatlanish, jismoniy faollik va psixologik barqarorlik yurakning eng yaxshi himoyachilaridir.

Har bir inson o`z yurak salomatligi uchun mas`uldir!

Miokard infarktini aniqlashda quyidagi usullar qo`llaniladi:

1. Elektrokardiogramma (EKG)- yurak elektr faoliyatidagi o`zgarishlar;
2. Qon tahlillari- yurak fermentlari ( troponin, CK-MB) darajasining oshishi;
3. Exokardiografiya- yurak qisqarish funksiyasining pasaygan nuqtalarini aniqlash;
4. Koronar angiografiya – to`silib qolgan tomirni aniqlash.

Miokard infarkti - shoshilinch holat. Ilk 1-2 soatda tibbiy yordam bemor hayotini saqlab qolishi mumkin.

Davolashda ishlataladigan dori vositalari:

- Antikoagulyantlar (geparin)
- Trombolitiklar
- Beta-blokatorlar
- Nitratlar



- Narkotik analgetiklar ( morfin)

Jarrohlik yo`li bilan :

- Angioplastika + stent qo`yish: to`silib qolgan tomirni kengaytirish;
- Aorto-koronar shuntlash : qon oqimini alternativ yo`l bilan tiklash;

Miokard infarktini o`z vaqtida aniqlab, tegishli profilaktik chora-tadbirlar ko`rilmasa, bemorda quyidagi og`ir asoratlar berishi mumkin:

- Yurak yetishmovchiligi;
- Aritmiyalar;
- Yurak anevrizmalar;
- O`lim;
- Ikkinchi infarkt( qaytalanuvchi infarkt)

Miokard infarkti- juda xavfli, lekin oldini olsa bo`ladigan kasallik hisoblanadi. Tez va to`g`ri tashxis qo`yish, o`z vaqtida davolash hamda sog`lom turmush tarzini olib borish infarkt xavfini kamaytiradi.

Har bir inson yurak salomatligi haqida doimo g`amxo`rlik qilishi zarur, zero sog`ligimiz boyligimiz!

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirzayev U.M, Abdullayeva S.A, Kardiologiya , Tibbiyat nashriyoti 2020.
2. Qodirov S.A, Yusupov SH.SH, Ichki kasalliklar propedivtikasi Toshkent Tibbiyat nashriyoti 2019.
3. American Heart Association. Heart Attack ( Myocardial Infarction) – Symptoms, Diagnosis and Treatment. <https://www.heart.org>
4. Braunwald E. Braunwald`s Heart Disease : A. Textbook of Cardiovascular Medicine 2022.
5. Y.L. Arslonov , T.A Nazarov, A. Bobomurodov Ichki kasalliklar Ilm Ziyo – 2013.

